

QADRIYAT LINGVOAKSILOGIK KATEGORIYA SIFATIDA

Islom MINNIQULOV

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ПОНЯТИЕ ЦЕННОСТИ КАК АКСИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ КATEGORIA

Ислом МИННИКУЛОВ

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

THE NOTION OF VALUE AS AN AXIOLINGUISTIC CATEGORY

Islom MINNIQULOV

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), Associate Professor
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan mr.islom19@gmail.com

UDC (УО'К, УДК): 811.512.133'366.596

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Minniqulov I. Qadriyat lingvoaksiologik
kategoriya sifatida // O'zbekistonda xorijiy
tillar. — 2022. — № 5 (46). — B. 29-36.

<https://doi.org/10.36078/1670912149>

Received: September 20, 2022

Accepted: October 17, 2022

Published: October 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Аннотация. Ushbu maqola qadriyat tushunchasini aksiolingvistik kategoriya sifatida o'rganadi. Xususan, qadriyat tushunchasining mohiyati, konseptual tuzilishi, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, aksiologik xususiyatlari va tilda voqelanish xususiyatlari muhokama qilinadi. Tadqiqot nazariy jihatdan amalga oshirilgan. Ya'ni ishda analiz, sintez, induksiya, deduksiya kabi umummantiqiy metodlar va mavhumlashtirish, umumlashtirish kabi nazariy metodlar asosida tadqiqot vazifalari amalga oshiriladi. Bu esa, o'z o'rnida, tadqiqot metodologiyasini belgilab beradi. Tadqiqot maqsadi qadriyat tushunchasining mohiyatini fanlararo integratsiya tamoyili asosida yoritish va uning aksiolingvistik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijasida quyidagi umumiy xulosalar shakllantirildi: qadriyat obyektiv olamning narsa, obyekt va hodisalarining salbiy va ijobiy qiymatini ifodalaydi; qadriyat tushunchasini uning deskriptiv, normativ va meta-normativ nazariyalari to'liq ta'riflaydi; qadriyatlar nafaqat insonlarni to'g'ri yo'naltirib turuvchi mezon, balki ularning harakatlarini baholovchi va ushbu bahoni izohlab beruvchi tushunchadir; baho qadriyatning lisoniy ifodasi bo'lib, qadriyat baholashda namoyon bo'ladi. Shuningdek, baholash qadriyat sistemasiga asoslanadi. Baholashning tildagi ifodasi ijobiy, salbiy, neytral kabi aksiologik shkalada aks etadi; baholash muayyan kommunikativ vaziyatda turli til birliklari yordamida lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sirida amalga oshiriladi.

Калит so'zlar: qadriyat; aksiologiya; aksiolingvistika; baho; aksiologik kategoriya; qadriyatlar tizimi; aksiologik shkala; aksiologik yondashuv.

Аннотация. В статье рассматривается понятие ценности как аксиолингвистической категории. В частности, рассматриваются сущность понятия ценность, его концептуальная структура, роль в общественной жизни, его аксиологические признаки, особенности проявления в языке. Исследование проводилось теоретически, то есть исследовательские задачи выполняются на

основе общелогических методов, таких как анализ, синтез, индукция, дедукция, и теоретических методов, таких как абстрагирование и обобщение. Это определяет методологию исследования. Цель исследования — осветить сущность понятия ценности на основе междисциплинарного принципа и проанализировать его аксиолингвистические особенности. В результате исследования были сформированы следующие общие выводы: ценность представляет собой отрицательную и положительную стороны вещей, предметов и явлений объективного мира; понятие ценности полностью представляется его описательной, нормативной и метанормативной теориями; ценности являются не только критерием, которым руководствуются люди, но и понятием, оценивающим их поступки и объясняющим эту оценку; оценка есть языковое выражение ценности, а ценность проявляется в оценке. Кроме того, оценка основана на системе ценностей. Языковое выражение оценки отражается в такой аксиологической шкале, как положительная, отрицательная, нейтральная; оценка осуществляется под влиянием лингвистических и экстралингвистических факторов при использовании различных языковых единиц в данной коммуникативной ситуации.

Ключевые слова: ценность; аксиология; аксиологическая лингвистика; оценка; аксиологическая категория; система ценностей; аксиологическая шкала; аксиологический подход.

Abstract. This article examines the concept of value as an axiolinguistic category. In particular, the essence of the concept of value, its conceptual structure, its role in social life, its axiological features, and the characteristics of its manifestation in language are discussed. The research tasks are performed based on the general logical methods such as analysis, synthesis, induction, deduction and theoretical methods such as abstraction and generalization. The research aims to illuminate the essence of the concept of value based on the interdisciplinary principle and to analyze its axiolinguistic features. As a result of the research, the following general conclusions were formed: the concept of value represents the negative and positive aspect of things, objects and events of the objective world; the concept of value is fully described by its descriptive, normative and meta-normative theories; values are not only a criterion that guides people, but also a concept that evaluates their actions and explains this evaluation; evaluation is a linguistic expression of value, and value is manifested in evaluation. The language expression of the assessment is reflected in an axiological scale such as positive, negative, neutral; evaluation is carried out under the influence of linguistic and extralinguistic factors using different language units in a given communicative situation.

Keywords: value; axiology; axiolinguistics; assessment; axiological category; value system; axiological scale; axiological approach.

Kirish. Qadriyat tushunchasi turli fanlar doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, uning asosiy mazmun-mohiyati falsafiy asoslarga ega. Shu ma'noda, Reinhard Paulsning e'tirof etishicha, qadriyat tushunchasi falsafa sohasida o'rganilishi buyuk faylasuf Aflotun davriga borib taqaladi va u yaxshilik, haqlik, go'zallik, fazilat, haqiqat, majburiyat, axloqiy mulohazalar, estetik mulohazalar nuqtayi nazaridan

muhokama qilingan. Uning nazariy asoslari o'sha davrdan XIX asrga qadar faylasuflar tomonidan ishlab chiqilgan (8, 7). Shuningdek, Evgeniya A. Smolii va boshqa olimlarning e'tiroficha, XIX asrning boshlarida qadriyat, qadriyat munosabatlari, ularning inson ijtimoiy hayotidagi roli turli soha olimlarining diqqat markazidan o'rin egallagan bo'lishiga qaramasdan, aksiologiyaning tarixi yaxshilik, go'zallik, haqiqat kabi tushunchalarni o'rgangan qadimgi mutafakkirlar (Suqrot)ga borib taqaladi. Ular "yaxshi", "adolat", "go'zallik" kabilarni mavhum tushunchalar sifatida emas, balki qadriyatlar deb o'rgangan. Biroq qadriyat tabiati, uning iyerarxiyasi kabi masalalar o'rganilmagan (11, 575). Ko'rinadiki, qadriyat yangi tushuncha bo'lmay, balki qadimgi davrga borib taqaladi va o'z nazariy asoslarini o'sha davrdan boshlab shakllantirgan. Qayd etish joizki, qadriyatning konseptual mazmuni uning mazkur nazariy asoslari bilan boyigan. Qadriyatning murakkab tabiati, iyerarxik tuzilishi kabi xususiyatlari esa o'tgan asrdan boshlab o'rganila boshlagan.

Shuningdek, falsafiy nuqtayi nazardan, Mikhail Permillovskiyning e'tirof etishicha, qadriyat jamiyat va insoniyat uchun ijobiy yoki salbiy qiymatini ifoda etuvchi tashqi olam obyektlarining muayyan ijtimoiy qoidalarini anglatadi (7, 163). Olimning qayd etishicha, qadriyat insonlar uchun ularning qiziqishlari markazlarini belgilab beradi. Ko'rinadiki, qadriyat obyektiv olam narsa, obyekt va hodisalarining salbiy va ijobiy qiymatini ifodalaydi va insonlar uchun ularning qiziqish nuqtasi sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qism. Qadriyat konsepti va o'lchovlari (ta'riflari)ning rivojlanishi falsafa, ijtimoiy, xulq-atvor va iqtisodiyot sohalarida qadriyat nazariyalariga asoslanadi. Shu munosabat bilan, Reinhard Pauls qadriyatning quyidagi tamoyillarini qayd etadi:

- a) deskriptiv (tavsifiy);
- b) normativ (me'yoriy);
- c) meta-normativ.

Qadriyatning tavsifiy nazariyalari qadriyat maydonida nima borligi haqida axborot beradi. Masalan, ular ma'lum odamlar jamoasi qanday qadriyatlarga ega ekanligini tasvirlaydi. Ushbu nazariyalar asosan ijtimoiy va xulq-atvor (tarbiya) fanlari uchun xos. Me'yoriy nazariyalar qadriyatda nima bo'lishi kerakligini ilgari suradi, masalan, ular shaxs yoki jamiyat uchun "adolatli", "yaxshi" yoki "axloqiy" xatti-harakatlarni tashkil etuvchi narsalarni bildiradi. Meta-normativ nazariyalar qadriyat va qadrlashni tahlil qiladi, ya'ni "yaxshilik" va "qadriyat" o'zi nima, biror narsani "yaxshi" yoki "qadrli" deb aytish nimani bildirishi va normativ nazariyalarni baholash mezonlarini belgilaydi. Ular qadriyat nazariyalarining dastlabki ikki turi uchun asos sanaladi (8, 8). Demak, qadriyat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, konseptual strukturasi, o'lchov birliklarining o'zgarishi, rivojlanishini qadriyatning deskriptiv, normativ va meta-normativ nazariyalari belgilab beradi.

Alexandra Y. Aikhenvaldning ta'rificha, qadriyat tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, inson hayotidagi yaxshi, to'g'ri, orzu qilingan narsalar qimmatli deb baholanadi (1, 53). Bundan aniq bo'ladiki, ushbu tushuncha insonlarga o'z hayot yo'llarida yaxshi, to'g'ri, orzu qilingan narsa, voqea-hodisa yoki ish-harakatni belgilab beradi.

Ijtimoiy psixologiya va kognitologiya mutaxassisi Shalom H. Schvartzning fikricha, qadriyatlar insonlarni ularning xatti-harakatlarini tanlash, odamlar va hodisalarni baholash va ularning harakatlari va baholarini tushuntirishga yo'naltiruvchi zaruriy tushunchalardir (10, 24–25). Aniq bo'ladiki, qadriyatlar nafaqat insonlarni to'g'ri yo'naltirib turuvchi mezon, balki ularning harakatlarini baholovchi va ushbu bahoni izohlab beruvchi tushunchadir. Bu esa uning aksiologik xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Shu o'rinda, qayd etish joizki, subyektiv mohiyatiga ko'ra, ya'ni kimga yoki kimlarga tegishliligiga binoan, qadriyatlar individual yoki shaxsiy kabi turi ham mavjud. Bunday qadriyatlar umumiy madaniyat va shaxsiy tajriba mahsuli bo'lishi mumkin. Zero, har bir inson biror ijtimoiy yoki madaniy guruhda o'zaro tajriba almashar ekan, umumiy madaniy qadriyatlarga bevosita tayanadi. Shubhasiz, ushbu guruhda har bir kishining o'ziga xos tajribasi va shaxsiyati qadriyatlarni individual turlarga ajratishni ham taqozo etadi (10, 25–26).

Gabriyel E. Idang individual qadriyatlarining ba'zi xususiyatlari to'g'risida fikr bildirar ekan, odamlar voqelikni anglashda turlicha bo'lganligi sababli, bir shaxsning qadriyatlari boshqasidan farq qilishini ta'kidlaydi. Uning e'tirof etishicha, hayot odamlarni tanlov qilishga yoki narsalarni yaxshi yoki yomon deya baholashga, shuningdek, ma'lum qadriyatlar shkalasi yoki standartini shakllantirishga majbur qiladi. Biz narsalarni qanday idrok etishimizga qarab, maqtashimiz va ayblashimiz, harakatlarimizni to'g'ri yoki noto'g'ri deb hisoblashimiz yoki hatto oldimizda turgan sahna yoki narsalarni chiroyli yoki xunuk deb baholashimiz mumkin. Anglashiladiki, insonlar ma'lum narsa, obyekt yoki hodisani qadrlil hisoblashlari ularning idrok tarzi, dunyoqarashiga bog'liq bo'lib, har bir inson o'z qadriyatlariga tayanadi (5, 101). Bu esa o'z o'rnida qadriyat tushunchasining aksiologik tabiatini namoyon etadi. Zero, ma'lum narsa, obyekt yoki hodisaga berilgan baho uning qiymati asosida beriladi.

Diana Iliyeva qadriyat va baho kategoriyalarining o'zaro chambarchas bog'liqligini quyidagicha izohlaydi: baholash keng ma'noda nutq obyekt va nutq predmeti o'rtasidagi qadriyat munosabatlarining lisoniy ifodasi sifatida tushuniladi. Insonning o'zi yashayotgan dunyoga qadrlil munosabati (value attitude) atrofda voqelik hodisalarini baholashda namoyon bo'ladi. Obyektlarning xossalari va sifatlarining me'yor bilan inson ongida qo'shilishi tilda ijobiy (ma'qullash), salbiy (inkor etish) yoki neytral munosabat

(beparqlik) shaklida ifodalanadi: yaxshi — yomon – tabiat (tabiiylik). Yaxshilik va yomonlik o'z semantikasiga baholash elementini kiritadi, tabiat baholash nuqtayi nazaridan neytraldir. Ushbu aksiologik triada baholashni tilda ifodalash mexanizmini ifodalaydi: yaxshi — yomon — neytral (6, 27). Ko'rinadiki, qadriyat va baho o'zaro integrativ hodisa bo'lib, bir-birini namoyon etishda zarur hisoblanadi. Ya'ni baho qadriyatning lisoniy ifodasi bo'lib, qadriyat baholashda namoyon bo'ladi. Shuningdek, baholash qadriyat sistemasiga asoslanadi. Baholashning tildagi ifodasi ijobiy, salbiy, neytral kabi aksiologik shkalada aks etadi.

Shuningdek, aksiologik baholash kommunikativ vaziyat kontekstida o'z baholash mazmunini turli til vositalari yoki lingvistik kontekst yoki ekstralingvistik kontekst yordamida namoyon qiluvchi jumlar va gaplar bilan ham ifodalanishi mumkin (6, 27). Bundan aniq bo'ladiki, baholash ma'lum kommunikativ vaziyatda turli til birliklari yordamida lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sirida amalga oshiriladi.

Barbara Rodziyevicz qadriyat tushunchasining yana bir aspekti haqida quyidagicha ta'kidlaydi: qadriyatlar nafaqat shaxs xatti-harakatlarining me'yoriy jihatiga asoslanadi, balki birinchi navbatda ularning subyektivlik hissi uchun javobgardir. Ya'ni ular inson faoliyatini rag'batlantiradi, ijodiy kuch-quvvatni safarbar qiladi, inson istaklarini ifodalaydi, shu bilan odamlarning rivojlanishiga yo'nalish beradi va ularga o'zini ham, boshqalarni ham, o'zining hamda boshqalarning tanlovini tushunishga imkon beradi (9, 141–142). Demak, qayd etish mumkinki, qadriyat inson xatti-harakatining normativ aspektini belgilab berish bilan birga shaxs subyektivligini ifodalaydi, shaxsning o'z va boshqa insonlar tanlovini tushunishga yordam beradi. Bunda u inson faoliyatining barcha jabhalariga kirib boradi va mazkur faoliyatni rag'batlantiradi, rivojlantiradi.

Shuningdek, Tatyana V. Evsyukova ham shunga o'xshash fikr bildiradi: qadriyat odamlarning xulq-atvori va idrokiga ta'sir qiluvchi standartdir. U madaniyatning me'yoriy-qiymatli tushunchalarini o'rganish orqali dunyoning aksiologik tasvirining o'ziga xos xususiyatlarini ishonchli aniqlash imkonini beradi. Qadriyatlar madaniy o'lchovning asosini ifodalaydi va madaniy o'ziga xoslikni ifodalovchi hodisalarning mohiyatini belgilaydi. Qadriyatlar jamiyat, ijtimoiy guruhlar yoki shaxsning ideal maqsadi sifatida qaraladi. Ular ijtimoiy xatti-harakatlarning asosiy tartibga soluvchisi sifatida hodisalarni, voqealarni va harakatlarni baholashda aniq tayanch nuqtalari hisoblanadi (2, 344). Aniq bo'ladiki, qadriyat insonning ijtimoiy ma'qullangan harakatlar qilishini belgilovchi standart bo'lib, madaniyat bilan chambarchas bog'liq, jamiyatning ideal maqsadi, ijtimoiy munosabatlar, xatti-harakatlarni baholash mezoni sifatida talqin qilinishi mumkin. Bunda qadriyat yana bir bor aksiologik kategoriya sifatida gavdalanadi.

Shuningdek, Samuel L. Hart qadriyat tushunchasi to'g'risidagi o'z fikrlarini davom ettirar ekan, uning hayotimizdagi o'rni haqida shunday deydi: bizning ehtiroslarimiz, qiziqishlarimiz, maqsadli harakatlarimiz orqasida ularning qadrli/arzirli ekanligiga ishonch bor. Biz ularga turli darajadagi ahamiyat yoki qiymat beramiz. Biz yaxshi va yomon maqsadlar, ezgu va yovuz amallar, go'zal va xunuk narsalar, taqvo va yomon niyat va amallar haqida gapiramiz. Bizning butun hayotimiz tortishish va itarish o'rtasida o'tadi. Hodisalar jozibali yoki jirkanch bo'lishi mumkin (4, 29). Ko'rinadiki, qadriyat tushunchasi hayotimizni ikki qarama-qarshi tomonga ajratib qo'ygandek tuyuladi. Hayot mana shunday oppozitsiyalar asosiga qurilgandek ko'rinadi. Albatta, bunda inson qadriyatlari orqali olamni idrok etishi muhim hisoblanadi. Shu ma'noda, qayd etish joizki, hayotning inson ongida ikki tomonlama in'ikos etishi qadriyatlarning aksiologik tabiati orqali sodir bo'lishini qayd etish mumkin.

David Graeberning ta'rificha, qadriyatlar — odamlar nimani xohlashi kerakligi haqidagi mezonlardir. Bu mezonlarga ko'ra, odamlar o'z xohish-istaklarini qonuniy va qadrli yoki qonuniy va qadsiz kabilarga ajratadilar. Shunday qilib, qadriyatlar hayotning ma'nosi bo'lmasa-da, balki hech bo'lmaganda, insonlarning undagi xohish-istaklari haqidagi g'oyalardir (3, 3). Ushbu ta'rifdan ma'lumki, qadriyat insonlarga ularning xohish-istaklarini qadrli yoki qadsiz, qonuniy yoki noqonuniy kabi turlarga ajratib turuvchi, insonlarning hayotdan kutayotgan xohish-istaklarini ifodalovchi g'oyalardir. Demak, aniq bo'ladiki, qadriyatlar insonlarga nima to'g'ri-yu (qonuniy, qadrli), nima noto'g'ri (noqonuniy, qadsiz) ekanligini ko'rsatib turuvchi aksiologik kategoriyadir. Shuningdek, uning aksiologik tabiati xususida Sergey Evgeniyevich Yachin quyidagi fikrni ilgari suradi: qadriyatlar inson subyektivligi va olamga nisbatan munosabatlarining chegarasini ifodalaydi (12, 36). Qadriyatlar insonning olam haqidagi subyektiv munosabatlarini namoyon qilishi mumkin.

Xulosa o'rnida qayd etish joizki, tadqiqot natijalari asosida quyidagi umumlashma fikrlarni shakllantirish mumkin:

- qadriyat obyektiv olamning narsa, obyekt va hodisalarining salbiy va ijobiy qiymatini ifodalaydi;
- qadriyat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, konseptual strukturasi, o'lchov birliklarining o'zgarishi, rivojlanishini qadriyatning deskriptiv, normativ va meta-normativ nazariyalari belgilab beradi;
- qadriyatlar nafaqat insonlarni to'g'ri yo'naltirib turuvchi mezon, balki ularning harakatlarini baholovchi va ushbu bahoni izohlab beruvchi tushunchadir;
- muayyan narsa, obyekt yoki hodisaga berilgan baho uning qiymati asosida beriladi;
- qadriyat va baho o'zaro integrativ hodisa bo'lib, bir-birini namoyon etishda zarur hisoblanadi. Ya'ni baho

qadriyatning lisoniy ifodasi bo'lib, qadriyat baholashda namoyon bo'ladi. Shuningdek, baholash qadriyat sistemasiga asoslanadi. Baholashning tildagi ifodasi ijobiy, salbiy, neytral kabi aksiologik shkalada aks etadi;

- baholash ma'lum kommunikativ vaziyatda turli til birliklari yordamida lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sirida amalga oshiriladi;
- qadriyat insonning ijtimoiy ma'qullangan harakatlar qilishini belgilovchi standart bo'lib, madaniyat bilan chambarchas bog'liq, jamiyatning ideal maqsadi, ijtimoiy munosabatlar, xatti-harakatlarni baholash mezoni sifatida talqin qilinishi mumkin;
- qadriyatlar insonlarga nima to'g'ri-yu (qonuniy, qadrlı), nima noto'g'ri (noqonuniy, qadrsiz) ekanligini ko'rsatib turuvchi aksiologik kategoriyadir;
- qadriyatlar insonning olam haqidagi subyektiv munosabatlarini namoyon qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar / References

1. Aikhenvald A. Y. The Value of Language and the Language of Value. A View from Amazonia, *Journal of Ethnographic Theory* 3 (2), 2013, pp. 53–77.
2. Evsyukova T. V. et al. Axiological World Picture of the Virtual Language Personality in Blog-Discourse Space, *European Research Studies Journal*, Volume 20, Issue 3B, 2017, pp. 342-354.
3. Graeber D. *Toward an Anthropological Theory of Value. The False Coin of Our Own Dreams*, New York: Palgrave Macmillan, 2001, 317 p.
4. Hart S. L. Axiology – Theory of Values, *International Phenomenological Society. Philosophy and Phenomenological Research*, Vol. 32, No. 1, 1971 (updated 2020), pp. 29-41.
5. Idang G. E. African Culture and Values, *University of South Africa, Phronimon*, Volume 16, No. 2, 2015, pp. 97-111.
6. Ilieva D. Axiological Aspects in Language, *Proceedings of University of Ruse*, 2017, Volume 56, Book 5.2, pp. 24-28.
7. Permilovskiy M. The Axiological Approach to the Regulation of the Right to a Favourable Environment, *Arctic Review on Law and Politics*, Vol. 3, 2/2012, pp. 162-185.
8. Reinhard P. *Concepts of Value: A Multi-Disciplinary Clarification*. – New Zealand: Centre for Resource Management, 1990, 76 p.
9. Rodziewicz B. Values, Their Hierarchy and Understanding among Polish, Russian, and German Students, *Ethnolinguistic* 28, 2017, pp. 141-152.
10. Schwartz S. H. A Theory of Cultural Values and Some Implications for Work, *Applied Psychology: An International Review*, 1999, 48 (1), pp. 23–47.

11. Smoli E. A. and et al. About Values as a Factor in Language and Culture, Laplage em Revista (International), Vol.7, N. Extra D, 2021, pp. 575-581.
12. Yachin S. E. Critique of Axiological Reason: Why the Idea of Values Has Achieved the Totality in Modern Culture, International Journal of Philosophy, 2019, 7(1), pp. 31-40.